



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi[®] digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Hamburg, Germany, 2026 Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Hamburg 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



ANVAR OBIDJON ASARLARIDA OT OKKAZIONAL SO'ZLAR

Gulnoz Usmonova

FarDU talabasi

Telefon raqami: +998333800823

Elektron pochta: gulnozusmonova16@gmail.com

. Ilmiy rahbar: M Qurbonova f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada okkazionalizm hodisasi, ot okkazional birliklar yasallishi, uning turlari, shuningdek, Anvar Obidjon asarlarida qo'llanilgan ot okkazional so'zlar haqida fikr yuritiladi. Asarlarda keltirilgan okkazonallar tahlil qilinadi.

Abstract. This article discusses the phenomenon of occasionalism, the formation of noun occasional units, its types, as well as noun occasional words used in the works of Anvar Obidjon. The occasionals mentioned in the works are analyzed.

Kalit so'zlar: okkazional so'zlar, okkazional otlar, ajoyibxona, janjaliston, so'rg'ildiriq, sovurmachilik, uyquxo'rqush, chumolibobo

Keywords: occasional words, occasional nouns, wonderhouse, quarrel, sucker, swindler, sleepyhead, anteater

Kirish. Anvar Obidjon ijodida ot okkazional so'zlar keng qo'llanilib, adibning individual uslubini shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biri sanaladi. Okkazional otlar bolalar adabiyotida badiiy obrazni yaratish, matnga o'yin va jonlilik bag'ishlash, fantaziya olamini kengaytirish kabi vazifalarni bajaradi. Ularning semantik va struktural xususiyatlari filologik jihatdan o'rganishga arzigulik bo'lib, o'zbek lingvopoetikasining rivojida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. M.Qurbonova "Milliy uyg'onish davri yozma manbalari tilida okkazional birliklarning qo'llanilishi" mavzusidagi dissertatsiyasi va Anvar Obidjonning "Mo'ttivoymisan,mittivoymisan?" qissasi va boshqa shu kabi asarlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokamalar. Okkazionalizm mavzusi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ammo tadqiqotlar ko'lamining kengligiga qaramay, okkazionalizm uchun yagona nazariya e'tirof etilmagan. Tilshunoslarning bir qismi ularning leksikologik xususiyatlarini, ba'zilar ularning shakllanishini, yana bir tadqiqotchilar sotsiolingvistik jihatlarini o'rganishgan. **Okkazional so'zlar**-muallif tomonidan badiiy maqsadda yaratilgan, kontekstual ma'noga ega bo'lgan va sistemaga kirmaydigan so'z birliklari. **Okkazional otlar** esa predmet yoki shaxsni yangicha, o'zgacha tasvirlash uchun hosil qilingan ot turkumidagi individual birliklardir.Ular affiksial,kompozitsiya yo'li,metaforik o'yin asosida yasalladi. Anvar Obidjon asarlarida eng ko'p uchraydigan okkazional otlar so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida hosil qilingan birliklardir. Masalan, qushbola, mushukvoy, **chumolibobo**. Bu so'zlar orqali adib bolalar tasavvuriga mos yumoristik va mehribon obrazlar yaratadi. Misol uchun, "chumolibobo" chumolini insoniylashtiradi,unga katta yoshli donishmand qiyofasini beradi. Qo'shma



shakldagi okkazonal otlar adibning fantastik olam yaratish uslubini ko'rsatadi. Masalan, uchqanot, uyquxo'rqush, shovqinchoy. "Uchqanot"- mavjud bo'lmagan jonivorning yangi obrazi. "**Uyquxo'rqush**" esa tez uxlash xususiyatini obrazli tarzda ifodalovchi kulgili, jonlanib ketgan birlik hisoblanadi. "Qishlog'imiz stadioniga ko'chma **ajoyibxona** kelib, anchadan beri tomosha ko'rsatayotgandi. Choyxona ayvonidagi so'rilarini to'ldirib o'tirganlardan biri: "Iye, ajoyibxonadagi yo'lbars qafasdan qochibdi-ku!"- deb baqirganini biladi, hamma to'rt yoqqa tum-taraqay bo'ldi." (Anvar Obidjon, "Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?", 8-bet). Anvar Obidjon bu yerda ajoyibxona so'zini sirk so'zi o'rnida mohirona qo'llagan. "Qilar ishni qilgin, qochishniyam bilgin, deganlar. Bu **janjalistondan** vaqtida g'oyib bo'lish uchun oyoqlarimni varvarakka aylantirganimda, ortimdan Sangin tandirchining baqirig'i eshitildi" ("Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?", 17-bet). Bu jumlada yozuvchi janjal so'ziga -iston o'rin-joy nomini yasovchi affiksini qo'shish orqali yangi ot okkazonalini yaratgan. -iston affiksi ma'lum bir millat ma'nosini ifodalovchi so'zga qo'shilib, ana shu millat yashaydigan joyni, shu millatga qarashli hududni ifodalaydigan ot yasaydi. Joy ma'nosini ifodalovchi so'zni hosil qiladi: O'zbek+iston, Tojik+iston kabi³³. Shu bilan birga, asosdan anglashilgan narsa ko'p bo'lgan joy ma'nosidagi ot ham yasaydi: gul+iston kabi.[1]

Bu yerda janjaliston so'zi janjal boshlanadigan yoki janjal bo'layotgan joy ma'nosida qo'llangan. "Hakillab-hakillab, oxiri guzarga yetib keldim. Qarasa, Parpivoy oshnam Momogul qandolatchidan **so'rg'ildiriq** olib turibdi." ("Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?", 57-bet). Anvar Obidjon bu yerda so'rg'ildiriq deya xo'rozqandning yangicha nomini yasagan. "-Dunyo dunyo bo'lib, bunaqa **so'urmachilikni** yo ko'rgan, yo ko'rmagan!-deya qiqirladi Baraka-maraka. Yozuvchi bu jumlada so'urmachilik deb isrofgarchilikni nazarda tutgan. ("Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?", 59-bet).

Xulosa. Anvar Obidjon asarida qo'llangan okkazonal otlar matnda o'ynoqilik va dinamika yaratadi, bolalar tasavvurini rivojlantiradi, obrazlarning o'ziga xosligini ta'minlaydi, kulgili effekt beradi, asar syujetini jonlantiradi, adibning individual uslubini belgilaydi. Ular adib ijodining til o'ynoqiligi va badiiy fantaziyasining asosiy elementi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

M.Qurbonova "Milliy uyg'onish davri yozma manbalari tilida okkazonal birliklarning qo'llanilishi" mavzusidagi dissertatsiya, Xorazm Ma'mun akademiyasi

Anvar Obidjonning "Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?", Toshkent, 2019